


78. To'g'ri burchak yasash

Yondosh mavzu:
origamalar.

To'g'ri burchak,
to'g'ri burchakli chizg'ich.




1. Shaklni ko'rsatma bo'yicha yig'ing. Ikkinci bosqichda qanday burchak hosil bo'ladi?




1. Kvadratni ikki buklang.



2. Yana ikki buklang.



3. Burchaklarni eging.




4. Pastki burchakni eging.



5. Ko'zlar va burunni chizing.



**To'g'ri burchak yasash uchun goniyanidan foydalanish mumkin.
Goniyaning to'g'ri burchagini tashkil etuvchi ikki tomoni bo'ylab to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi.**




$\angle AOB$ – to'g'ri burchak

2. Agar uchburchakning burchaklaridan biri to'g'ri burchak bo'lsa, bunday uchburchak to'g'ri burchakli uchburchak deb ataladi. Ushbu uchburchaklardan qaysi biri to'g'ri burchakli ekanini aniqlang.



3. To'g'ri burchakli uchburchakning bir tomoni 6 cm, ikkinchi tomoni 8 cm. Bu uchburchakni daftaringizga chizing va uchinchi tomoni uzunligini o'lchang. Uning perimetrini toping.





4. Ifodalarni matematik tilda yozing va ularning qiymatlarini toping.
- 519 va 134 sonlari yig'indisidan 379 sonini ayirish;
 - 980 va 156 sonlari ayirmasidan 265 sonini ayirish;
 - 634 va 287 sonlari yig'indisidan 563 sonini ayirish;
 - 920 sonidan 251 va 198 sonlari ayirmasini ayirish.



5. Matematika to'garagi mashg'ulotida bolalar 18 ta baqa shaklini, 16 ta qarg'a va 11 ta oqqush shaklini yig'ishdi. Bolalar hammasi bo'lib nechta shakl yig'ishgan? Baqalardan nechta ko'p qushlar shakli yig'ilgan?



6. MK to'g'ri chiziq yasang. AB to'g'ri chiziqni shunday o'tkazingki, u bilan MK to'g'ri chiziq orasidagi burchak to'g'ri bo'lsin.



7. Jadval ma'lumotlaridan foydalanib, ifodalarning qiymatlarini hisoblang.

| | | | | |
|----------|----|----|----|----|
| a | 14 | 26 | 37 | 42 |
| $a + 29$ | | | | |

| | | | | |
|----------|----|----|----|----|
| b | 93 | 81 | 56 | 41 |
| $b - 37$ | | | | |



8. Davron bir son o'yladi, uni 245 taga orttirib, keyin 99 taga kamaytirdi. Natijada 485 hosil bo'ldi. U qanday sonni o'ylagan?



9. Daftaringizga tomonlari 5 cm va 12 cm bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchak chizing. Uchinchi tomoni uzunligini o'chang. Shu uchburchakning perimetrini toping.

